




UO'K: 1(575)+94(575)+316.7

JADIDLAR HARAKATI VA MADANIY UYG'ONISHNING FALSAFIY ASOSLARI**ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДОВ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ****THE JADID MOVEMENT AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS CULTURAL AWAKENING****Shavkat Ergashevich Daniyarov** 
Alfraganus university**Annotatsiya**

Jadidlar harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o'zbek jamiyatida yangi ma'rifat va taraqqiyot g'oyalarini ilgari surgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy harakatdir. Ushbu maqolada harakatning ta'lim tizimi, matbuot va tarbiya sohasidagi faoliyatlari tahlil qilinadi. Jadidlar ta'lim sohasida milliy, zamonaviy ta'limni rivojlantirish, arab yozuvini yangilash va ko'plab maktablar ochish orqali yangi avlodni tarbiyalashga katta hissa qo'shdilar. Matbuot orqali ular, o'zlarining zamonaviy va ilg'or g'oyalarini ommalashtirib, milliy uyg'onish va madaniy islohotlarni targ'ib qildilar. Jadidlar harakati ta'lim va tarbiya borasidagi islohotlar orqali o'zbek xalqining o'zligini anglashiga, zamonaviy dunyo bilan integratsiya qilishiga, ilm-fan va madaniyatga qadam qo'yishiga imkon yaratdi. Maqolada shuningdek, bu harakatning falsafiy jihatlari va bugungi kun bilan bog'lanishi ko'rib chiqiladi.

Аннотация

Движение джадидов было социальным, политическим и культурным движением, продвигавшим новые идеи просвещения и развития в узбекском обществе в конце XIX — начале XX веков. В статье анализируется деятельность движения в системе образования, печати и воспитания. Джадиды внесли значительный вклад в воспитание нового поколения, развивая национальное современное образование, модернизируя арабскую письменность и открывая множество школ. Через прессу они популяризировали свои современные и прогрессивные идеи, содействовали национальному возрождению и культурным реформам. Движение джадидов посредством реформ в образовании и воспитании позволило узбекскому народу осознать свою идентичность, интегрироваться в современный мир, войти в науку и культуру. В статье также рассматриваются философские аспекты этого движения и его актуальность для наших дней.

Abstract

The Jadid movement is a social, political and cultural movement that promoted new ideas of enlightenment and development in Uzbek society in the late 19th and early 20th centuries. This article analyzes the activities of the movement in the education system, press and upbringing. The Jadids made a great contribution to the upbringing of a new generation by developing national, modern education, updating the Arabic script and opening many schools. Through the press, they popularized their modern and progressive ideas and promoted national revival and cultural reforms. Through reforms in education and upbringing, the Jadid movement allowed the Uzbek people to understand their identity, integrate with the modern world, and step into science and culture. The article also examines the philosophical aspects of this movement and its connection to the present day.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, usuli jadid, an'anaviy qadriyat, tafakkur erkinligi, ilm-fan, ta'lim, falsafiy yondashuv, jadidchilik fenomeni, ma'rifat, jahon madaniyati, milliy matbuot, ma'naviy-axloqiy taraqqiyot, tarbiya.

Ключевые слова: Джадидизм, джадидский метод, традиционные ценности, свобода мысли, наука, образование, философский подход, феномен джадидизма, просвещение, мировая культура, национальная пресса, духовно-нравственное развитие, воспитание.

Key words: Jadidism, jadid method, traditional values, freedom of thought, science, education, philosophical approach, Jadidism phenomenon, enlightenment, world culture, national press, spiritual and moral development, upbringing.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida, madaniy almashuv, ilm-fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi jarayonida, jadidchilik g'oyalari o'zining ahamiyatini yana bir bor namoyon etmoqda. Bu borada jadid marifatparvarlarining falsafiy qarashlarida ilgari surilgan tafakkur erkinligi, ilm-fan va ta'limga e'tibor, an'anaviy qadriyatlarni yangilashga bo'lgan yondashuvlari bugungi kunda jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda va butun Markaziy Osiyo mintaqasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, madaniyat va

FALSAFA

ijtimoiy hayotni yangilashga qaratilgan tashabbuslar aynan jadidchilik g'oyalarining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bugungi kunda, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlarda jadidchilikning zamonaviy talqiniga ehtiyoj tug'ilmoqda. Boshqacha aytganda, ushbu tizimning sifati bugungi va ertangi hayotimiz darajasini belgilashi kerak[1:148]. Ayniqsa, yoshlarni ta'lim va ilm-fan sohasida yangiliklarga tayyorlash, madaniy va ilmiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish, jamiyatda erkin tafakkur va ijtimoiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishni ta'minlash kabi masalalar dolzarbdir.

Jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlaridan biri o'z vaqtida jamiyatda o'zgarishlar qilishga qaratilgan bo'lsa-da, uning falsafiy g'oyalari bugungi kunda yosh avlodni yangicha fikrlashga, ilm-fan va madaniyat sohasida yangiliklarga ochiqlikka, an'anaviy qadriyatlarni zamon talablariga moslashtirishga yo'naltirishda qo'llanilishi mumkin. Bu jihatdan jadidchilik harakati va uning falsafiy yondashuvlari bugun ham jamiyatni yangilash va rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA METODLAR

Jadidchilik harakatidagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar bugungi kunda yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda alohida o'ringa ega. Jadidlarning faoliyatiga bo'lgan qiziqish bir qator tadqiqotchilardan tomonidan o'rganilgan. Jumladan, D.Alimova[3], B.Qosimov, K.Namozova, T.Qozoqov, U.Dolimov, Sh.Rizayev va boshqa ko'plab tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan bu mavzu bo'yicha darslik, monografiya hamda ilmiy maqolalar nashr etilgan. Masalan, D.Alimovning "Jadidchilik fenomeni" nomli asarida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon kabi namoyandalari faoliyati va ularning Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ro'li yoritilgan. B.Qosimov, U.Dolimov va boshqalar tomonidan yaratilgan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" deb nomlangan asarida jadidchilik harakatini milliy uyg'onish nuqtai nazaridan o'rganilganligining guvohi bo'lamiz. K.Namozova esa "Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar" deb nomlangan monografiyasida Turkistonning zulm va mustamlaka iskanjasida qolganligi hamda unga qarshi milliy uyg'onishning kuchayganligi, milliy uyg'onish namoyandalarning asosan ma'rifat yo'lidan borganligi, ta'lim tizimida o'zgarishlar qilishga intilgani, tarix, adabiyot, san'at, tarbiya sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borganligi, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalarda islohot va muammolarini dadil ko'tarib chiqqanlari yoritiladi.

Shuningdek, maqolada qo'lga kiritilgan materiallarni ilmiy tahlil qilishda retrospektiv va tizimli tahlil, vorisiylik, analiz va sintez, qiyosiy o'rganish, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jadidlar harakati XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda yangiliklar tizimini ifodalaydi. Ushbu harakat, o'zining falsafiy prinsiplarini zamonaviylik, tafakkur erkinligi va milliy mustaqillik g'oyalariga tayanib, an'anaviy jamiyatni yangilashni maqsad qilgan edi. Jadidlar harakati, o'zining konsepsiyalari va amaliy faoliyati orqali, jahon madaniyati bilan hamohang ravishda milliy uyg'onish jarayonini boshladi.

Jadid marifatparvarlarining faoliyati, asosan, ularning ilm-fan va ta'limga bo'lgan yondoshuvi, ijtimoiy-siyosiy islohotlarga intilishi, Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi uyg'unlikni yaratishga urinishlari, milliy mustaqillik va identifikatsiya muammolarini o'rganishlari hamda tafakkur erkinligi hamda jamiyatdagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi. Bularning barchasi falsafiy nuqtai nazardan juda chuqur va kompleks jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Turkiston jadidlari o'lkada o'z faoliyatlarini ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida boshladilar. Ular vatanni ozod qilish va milliy mustaqillikka erishish uchun zamonaviy bilimlar bilan qurollangan mutaxassislarni tayyorlash zarurligini anglab, yangi usul maktablarini tashkil etishga harakat qildilar. Bu harakat, aslida, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyot uchun muhim bir qadam bo'ldi[6:129;130].

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning shahar va qishloq joylarida o'ziga xos bir ta'lim tizimi mavjud edi. Har bir mahallada masjid va uning yonida madrasa bo'lib, diniy ta'lim berilardi. Madrasalar, asosan, an'anaviy ilmni tarqatish, diniy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish bilan shug'ullanishardi. Masalan, 1890-yilda Buxoroda 217 masjid va 185 madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Qo'qon shahrida 1917-yil 26-noyabrda 392 masjid va 40 madrasa mavjud edi. Bunday holat,

jamiyatda ta'limni diniy tafakkur asosida tashkil etish va ijtimoiy-siyosiy tizimni saqlab qolish maqsadida amalga oshirilgan edi[2:18;19].

Lekin, 1884-yilda Qrimning Boqchasaroy shahrida Ismoilbek Gasprali yangi o'quv usuli – "usuli jadid"ni ishlab chiqdi, bu esa o'zgarishlar va rivojlanish uchun zarur bo'lgan tafakkur erkinligining asosini tashkil etgan. Gasprali tomonidan joriy etilgan yangi ta'lim tizimi, nafaqat ilmiy bilimlar, balki tafakkur erkinligi, zamonaviy g'oyalar va umumbashariy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qildi[2:18;19].

"Usuli jadid"ning Turkistonga kirib kelishi 90-yillarda boshlandi. 1893-yilda Ismoilbek Gasprali o'zining bu g'oyalarini Buxoroda amalga oshirib, Amir bilan uchrashib, yangi maktab ochishga muvaffaq bo'ldi. Bu maktablar, ayniqsa, zamonaviy bilimlarni o'rgatishga qaratilgan va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ajralmas qismi bo'ldi. 1895-1901 yillarda Toshkentda to'rtta "usuli jadid" maktabi faoliyat ko'rsatdi, bu esa yosh avlodni yangi ilmiy va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan edi. 1900-yilda Andijonda ham bunday maktab ochildi[2:18;19].

1907-yilga kelib, Turkistonda jami 30 ta jadid maktabi faoliyat yuritib, 1300 nafar bola yangi usulda ta'lim olardi. Bu maktablar, aslida, faqat ilm olishni emas, balki fikrlash erkinligini, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga tayyor bo'lishni, yangi g'oyalar va ilmiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutgan. Jadidlarning o'quv tizimi, asosan, jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan, yangi tafakkur va taraqqiyotning poydevorini yaratishga intilgan edi[2:18;19].

Falsafiy nuqtai nazardan, bu o'zgarishlar jamiyatning tafakkurini yangilash, odamlar va jamiyatni yangi bilimlar bilan qurollantirish, axloqiy va ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan edi. Jadid maktablari nafaqat ta'lim, balki milliy o'zlikni anglash, inson huquqlari va erkinlikni hurmat qilish, jamiyatdagi tenglikni mustahkamlashni o'z ichiga olgan. Bu yangilik, o'z navbatida, jamiyatda yangi g'oyalar va yangicha qarashlarning yuzaga kelishini ta'minlab, yangi, erkin va taraqqiyparvar fikrlar asosida rivojlanishga yo'l ochgan.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi. Bunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai nazardan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildilar[5:73].

XX asrning 15-20- yillaridagi maktablarni eng zarur o'quv darsliklari bilan ta'minlash ishida ham jadidchi ma'rifagparvarlar fidoyilik ko'rsatganlar. Ularning ijodkorligi, mehnati va izlanishlari, iste'dod va mahoratlari bilan yangi usul maktablari uchun yangi turdagi 50 ga yaqin darsliklarning butun bir yangi avlodi vujudga keldi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilgan kitoblarda yangi usul maktablari o'quvchilarining ilk savodxonligini oshirish, axloqiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish, ularga dunyoviy va diniy bilim berish, milliy mentalitetni saqlash ko'zda tutilgan[4:51;52].

Jadidchilik harakati XX asr boshida jiddiy tus oldi va aynan shu davrda milliy matbuotning shakllanishi tarixiy ahamiyatga ega voqea sifatida maydonga keldi. Jadidlarning maqsadi nafaqat xalqni taraqqiyot yo'lga yetaklash, balki o'zlarining milliy g'oyalarini, madaniy qadriyatlarini va jamiyatning ehtiyojlarini aks ettiruvchi bir matbuot tizimini yaratish edi. O'lka hayotini chuqur yoritish, milliy masalalarni keng qamrab olish va dunyodagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar haqida ob'ektiv axborot taqdim etish zarurati tug'ildi.

Bunday matbuotning yaratilishi, albatta, o'z vaqtida jiddiy muammo edi. Jadidlar, o'zlarining aqliy salohiyatlari, bilimlari va imkoniyatlari bilan bu borada muhim qadamlar tashladilar. Ular gazeta va jurnallarni nafaqat axborot vositasi sifatida, balki ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy minbar sifatida ham faoliyat ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratdilar. Bu vositalar xalqni uyg'otish, ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish, shuningdek, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish uchun zarur edi.

Turkiston jamiyati uchun milliy matbuot yangilik sifatida paydo bo'ldi. Jadidlarning har biri shu yangilikni tashkil etishda o'zining yuksak hissasini qo'shdi. Ular yaratgan gazeta va jurnallar, nafaqat o'z davrining, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim tarixiy hujjatga aylandi. "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Osiyo", "Samarqand", "Turon", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Najot", "Sho'roi islom", "Hurriyat", "Kengash", "Ulug' Turkiston", "Turk so'zi", "Xalq dorulfununi", "El bayrog'i", "Farg'ona nidosi", "Tirik so'z" va "Farg'ona sahifasi" kabi gazetalar, jadidchilik harakatining o'ziga xos

FALSAFA

shakli va ramzi bo'lib, xalqning ongini yuksaltirish, fikrini shakllantirish va milliy erkinlikka erishish yo'lida katta ahamiyat kasb etdi[4:80;81].

Jadidchilik harakati va uning matbuoti, shubhasiz, insoniyatning rivojlanishidagi ilmiy, falsafiy va ijtimoiy omillarning uyg'unlashuvini ta'minlashga xizmat qildi. Jadidlar faqatgina yangi g'oyalarni targ'ib qilish bilan cheklanmay, balki o'z xalqining madaniy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlariga intilishdi. Bu harakat, umuman olganda, jamiyatning o'zgarishlarini faollashtirish, yangi davrga mos fikr va qarashlarni shakllantirishning zarur vositasi sifatida paydo bo'ldi.

Jadidchilik harakati, faqatgina yoshlarni ilm olishga undash bilan cheklanmagan, balki ular uchun moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, chet elda ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish yo'lida ham katta sa'y-harakatlar ko'rsatgan. Bu jarayonda, bir qator turkistonlik yoshlarga chet elda ilm olish sharafiga erishish nasib etdi. Jadidlarning o'z xalqining rivojlanishiga bo'lgan tashabbuslari, yoshlar uchun faqat bilim berish bilan emas, balki ularning ongi va qalbini to'g'ri yo'naltirish, madaniy va ma'naviy jihatdan shakllantirishga ham katta ahamiyat qaratgan.

Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Sadridin Ayniy, Xoji Muindek bir qator jadid ma'rifatparvarlarining tarbiya, ilm va ma'rifat haqidagi fikr-mulohazalari bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularning ilgari surgan g'oyalari, insonning kamolotga erishishida, ta'lim va tarbiyaning o'rni haqidagi qarashlari, bugungi kunda ham dolzarb masalalar sifatida muhokama qilinmoqda. Aynan joriy davrda yoshlarni tarbiyalash, ularni noxush va begona g'oyalardan himoya qilish, ta'limda ilg'or talablarga javob beradigan ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal insonlarni shakllantirish kabi masalalar jadidchilik harakatining ta'lim va tarbiya borasidagi aniq ko'rsatmalarining davomidir.

Falsafiy jihatdan, tarbiya faqat insonni bilim bilan to'ldirish emas, balki uning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirishdir. Haqiqiy tarbiya olgan inson, o'zining yuqori ma'naviyati va madaniyati bilan boshqalar uchun namunadir. Aks holda, faqat bilimi yuqori bo'lgan inson jamiyat uchun foydali bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun jamiyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyoti, uni a'zolarining ma'naviy yuksalishiga bog'liqdir. Jadidlarning ma'naviyatiga xos bo'lgan eng muhim fazilatlar quyidagilarni tashkil etadi: teran tafakkur, bilimga intilish, zukkolik, ma'rifatparvarlik, ziyolilik; yangi g'oyalarni qabul qilishga tayyorlik, taraqqiyotga intilish, islohotchilik; faollik, shijoat, jasorat[4:95].

Bu fazilatlar, jadidlarning ma'rifiy va madaniy qarashlarini keng tarqatish, xalqni birlashtirish va jamiyatda progressiv o'zgarishlarni amalga oshirishda ularga katta yordam berdi. Ular, o'zining ma'rifiy g'oyalari va ijtimoiy faolligi bilan, Turkiston jamiyatiga yangi qarashlar, yangi qadriyatlar va yangi madaniy muhitni olib keldilar. Jadidchilik, nafaqat ilm-fan va ma'rifat, balki jamiyatni yangi davrga tayyorlash, madaniyat va tafakkurni o'zgartirishning bir vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu tariqa, jadidlarning faoliyati nafaqat ilmiy va madaniy jihatdan, balki ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham katta tarixiy falsafiy ahamiyatga ega. Ular, o'z davrining talablariga javob berib, xalqni yangiliklarga, taraqqiyotga, yuksalishga undash bilan birga, uning ma'naviy, axloqiy va ilmiy o'sishini ta'minladilar.

XULOSA

Jadidchilik harakati va madaniy uyg'unlashning falsafiy asoslari jamiyatni yangilash, ilm-fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Jadidlar harakati, ta'lim islohotlari, matbuot va tarbiya sohalarida o'zgarishlar yaratish orqali, jamiyatni zamonaviy dunyoga moslashtirishni maqsad qilgan. Ularning g'oyalari, millatni ilm va ma'rifat bilan yuksaltirish, fikr erkinligini ta'minlash va ijtimoiy hayotni yangilashga qaratilgan edi. Jadidchilik harakati o'zining falsafiy asoslarida, ta'lim tizimini isloh qilish, matbuot orqali yangiliklarni tarqatish va tarbiya masalasida insonni ilmga, ijtimoiy hayotga moslashishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Ularning faoliyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki ular o'z zamonasi uchun ilmiy va madaniy uyg'unlashning asosiy yo'llarini ko'rsatib, o'sha davrda amalga oshirilgan islohotlar nafaqat o'sha davr, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim meros bo'lib qoldi. Shunday qilib, jadidchilik harakati va uning falsafiy asoslari, har bir jamiyat uchun o'zgarish va taraqqiyot sari yurishning zaruriy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.–Т.: Ўзбекистон, 2020. – 456 б.
2. Бегали Қосимов ва бошқ., Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Т.: Маънавият, 2004. 464
3. Д.Алимова, Жадидчилик феномени. – Тошкент: "Akademnashr", 2022. – 272 б.

4. К.Намозова, Жадидчилик: муаммолар, ислохот ва қарашлар. Дарслик. –Т.: Turon-Iqbol, 2010. – 152 б.
5. Т.Қозоқов. Фарғона водийсида жадидчилик ҳаракати. Монография. – Т.: Наманган нашриёти 2018. – 141
6. С.Отамуратов, С.Хусанов, Ж.Раматов. Маънавият асослари. Ўқув қулланма. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002. - 213 бет.